OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA KAFEDRA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA

Uslubiy qo‘llanma

2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA KAFEDRA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA USLUBIY QO‘LLANMA

Toshkent – 2024

Ushbu uslubiy qo‘llanma Professional ta’limni rivojlantirish instituti Ilmiy-pedagogik Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi 14-sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan.

Tuzuvchilar:

Professional ta’limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi **D.B.Atajanova**

Quva tuman kasb-hunar maktabi “Mutaxassislik maxsus fanlar kafedrasi mudiri **N.R.Akbarov**

Taqrizchilar:

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti “Menejment” kafedrasi mudiri, P.f.f.d., (PhD), dotsent **A.N.Rasulov**

Professional ta’limni rivojlantirish instituti “Personalni boshqarish” kafedrasi mudiri, P.f.f.d., (PhD) **N.A.Roziqova**

Dizayn saxifalovchi **Sh.I.Tuxtasinov**

MUNDARIJA

1.	Kirish.....	4
2.	Kafedraning asosiy maqsadi.....	5
3.	Kafedra mudirining faoliyati.....	16
4.	Kafedra mudirining hisobotida aks ettiriladigan ma'lumotlar.....	31
5.	Kasbiy tashkilotida tashkil etilgan kafedranig o'quv jarayonini muvofiqlashtiruvchi jadval namunalari.....	32
6.	Xulosa.....	32
7.	Foydalanilgan manbalar.....	39

KIRISH

Bugungi kunda kasbiy ta'lim tizimidagi katta islohotlar o'z natijasini berishni boshladi, shu qatorda kasbiy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish borasida tizimli ishlarni tashkil qilish vazifalari belgilab berilmoqda. Shu jumladan, ta'lim tashkilotlariga akademik mustaqillik berilishi, xalqaro ta'lim dasturlarni kasbiy ta'lim tashkilotlarida joriy qilinishi, kasbiy ta'limni rivojlantirish uchun alohida jamg'arma tashkil etilib, unga joriy yilga ellik milliard so'm mablag' yo'naltirilishi va shu kabi bir qator vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 158-son Farmonida belgilab qo'yildi.[1]

Texnikumlarga bo'lgan yondoshuvlar o'zgarmoqda va ular murakkab kasb beradigan, mehnat bozorida raqobat qila oladigan kadrlar tayyorlaydigan ta'lim tashkiloti bo'lishi lozimdir.

Yangi pedagogik texnologiyarni o'quv jarayoniga tadbiq etish, kasbiy ta'lim bosqichlari uchun darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratish, fanlarga doir o'qitish materiallari to'plamlarnini ishlab chiqish hamda o'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan o'quv amaliyotlari mashg'ulotlari sifatini yaxshilash, shu qatorda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda, o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'ilimi ustalarini ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilishda va boshqa tashkiliy-metodik ishlarni amalga oshirishda kafedralarining ahamiyati kattadir.

Kasbiy ta'lim tizimida o'quvchilarga sifatli bilim berishni tashkil qilishda kafedraning ahamiyati kattadir. Ushu uslubiy qo'llanma kasbiy ta'lim tashkilotlarida kafedra mudirlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha kafedralar ishini rejalashtirish va tashkil etish uchun mo'ljallangan. Unda kafedra ishini tashkil etishga doir tavsiyalar, kafedrani tashkil etishdan asosiy maqsad va vazifalar, kafedra mudirning lavozim vazifalari, burch va huquqlari kabi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek uslubiy qo'llanmada ta'lim tashkilotida tashkil etilgan kafedra misolida ish yuritish hujjatlaridan namunalar, kafedraga tegishli bo'lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar ro'yxati ham o'rin olgan.

1. Kasbiy ta'lim tashkilotlarida kafedralarni tashkil etish

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida kafedralar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Markazining 2008-yil

12-sentabrdagi 168-sonli buyrug'i bilan "Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari fan kafedrasi to'g'risida namunaviy Nizomi" asosida tashkil etiladi.[2]

Kafedraning nomi va tarkibi kasbiy ta'lim tashkiloti direktori

[1]Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risidaO'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.10.2024 yildagi PF-158-son

[2]Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari fan kafedrasi to'g'risida namunaviy Nizom

tomonidan barcha pedagoglarni, jumladan o‘rindoshlik asosida ishlovchi pedagoglarni ham inobatga olgan holda rasmiylashtiriladi Kafedraning ish faoliyati o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy, ilmiy-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy, ishlab chiqarish va boshqa ish jarayonlarini qamrab olgan istiqbolli va joriy ish rejalari asosida amalga oshiriladi.

Belgilangan ish rejalari va kafedra faoliyatiga tegishli boshqa masalalarning bajarilishi pedagog, muhandis-pedagoglar ishtirokida kafedra majlisida muhokama etilib, qaror qabul qilinadi. Kafedra va kafedra mudirining ish rejalari ta’lim muassasa direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Kafedralar kasbiy ta’lim tashkiloti ilmiy-pedagogik kengash qarori va kasbiy ta’lim tashkiloti direktori buyrug‘i asosida tashkil etiladi yoki tugatiladi.

Ta’lim muassasasida o‘qituvchi sifatidagi faoliyati 5 yildan kam bo‘lmagan, yuqori malakaga ega bo‘lgan, tajribali o‘qituvchilar tarkibidan kasbiy ta’lim tashkiloti direktori buyrug‘i bilan kafedra mudiri tayinlanadi.

Kafedra faoliyati uchun kafedra mudiri mas’uldir. Kafedra mudiri o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari va uslubchi rahbarligida ish olib boradi.

Kasbiy ta’lim tashkilotlarida mavjud yo‘nalishlardan kelib chiqib kafedrani quyidagi fan kafedralariga ajratish tavsiya etiladi:

- **Tillar kafedrasiga** - Ona-tili va adabiyot, Rus tili, Xorijiy til va boshqa tillar;
- **Maxsus fanlar kafedrasiga** - Umumkasbiy fanlar, maxsus fanlar, o‘quv amaliyotlarini;
- **Aniq fanlar kafedrasi** - Matematika, Informatika va axborot texnologiyalari, Fizika, va boshqa shu kabi aniq fanlar;
- **Tabiiy fanlar kafedrasiga** - Kimyo, Biologiya, Geografiya kabi tabiiy fanlar;
- **Ijtimoiy-gumantar fanlar kafedrasiga** - Tarix, Davlat va huquq asoslari, Tarbiya kabi turdosh fanlar yig‘ilib fan kafedralari tashkil etiladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan fan kafedralari nomi faqatgina tavsiya sifatida keltirilgan.

Kasbiy ta’lim tashkilotida mavjud turdosh kasb va mutaxassisliklarga tegishli fanlar ro‘yhati shakllantiriladi, quyida Yengil sanoat yo‘nalishi bo‘yicha turdosh kasb va mutaxassislikka tegishli fanlar jamlanmasi misol tariqasida keltirilgan;

30720421 - Yengil sanoat texnologik jarayon nazoratchisi kasbi,

40720414 - Tikuv mahsulotlarini konstruktorlashtirish, model-lashtirish texnologiyasi mutaxassisligi, 50720402- Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasi va texnologiyasi (tikuvchilik bo‘yicha) mutaxassisliklari o‘quv rejasidagi fanlarni umumlashtirib bitta Maxsus

fanlar yoki Mutaxassislik fanlari kafedrasi tashkil etilishi mumkin. Quyidagi 1-jadvalda “Maxsus fanlar ” kafedrasiga tegishli fanlar ro‘yxati keltirilgan.

“Maxsus fanlar” kafedrasiga tegishli fanlar ro‘yxati

1-jadval

	Fanlar nomi	Soatlar tasimoti			
		Jami	Nazariy	Amaliy	Mustaqil ta’ lim
I.	**30720421-Yengil sanoat texnologik jarayon nazoratchisi kasbi bo‘yicha**				
1.	Materialshunoslik				
2.	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi.				
3.	Texnikaviy chizmachilik				
4.	Tabiiy tolalarga dastlabki ishlov berish				
5.	To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi				
6.	**O‘quv amaliyoti:**				
7.	To‘qimachilik mahsulotlari sifat nazorati				
8.	Ishlab chiqarish amaliyoti				
9.	Diplom oldi amaliyoti				
II.	**40720414-Tikuv mahsulotlarini konstruktorlashtirish, modellashtirish texnologiyasi mutaxassisligi bo‘yicha**				
	Umumkasbiy fanlar:				
1.	Tikuvchilik materialshunosligi				
2.	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi.				
3.	Maxsus rasm				
4.	Kiyimlarni kompyuterda loyihalash				
5.	Mahsulot sifatini standartlashtirish				
	O‘quv amaliyoti:				
6.	Tikuv buyumlariga texnologik ishlov berish				
	Modelyer-konstruktor kvalifikatsiyasi bo‘yicha:				
7.	Tikuv buvumlarini badiiy bezash asoslari				

8.	Tikuv buyumlarini loyihalash				
	O‘quv amaliyoti:				
9.	Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish				
10.	Ishlab chiqarish amaliyoti				
11.	Diplom oldi amaliyoti				
III.	**50720402-Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasi va texnologiyasi mutaxassisligi (tikuvchilik bo‘yicha)**				
1.	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi				
2.	Muhandislik va kompyuter grafikasi				
3.	Keng assortimentdagi kiyimlarni andazasini tayyorlash, bichish va tikish				
4.	Tikuvchlik materialshunosligi				
5.	Kostyum kompozitsiyasi va kreativ grafikasi				
6.	Tikuv buyumlarini loyihalash				
7.	Tikuvchilik zamonaviy jihozlari				
8.	Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi				
	Tanlov modullari				
9.	Tikuvchilik jihozlari				
10.	Kostyum va moda tarixi				
11.	Sohaga kirish				
12.	**Kiyim andozalarini tayyorlash**				

Izoh: O‘quv mashg‘ulotlarining soatlari o‘zgarib turganligi uchun jadvalda soatlar ko‘rsatilmadi.

Kafedraga ma’lum bir fan yoki turdosh fanlar pedagoglari va muhandis-pedagoglari birlashmasidan iborat bo‘lib, ta’lim tashkilotida ishlaydigan pedagoglar, muhandis-pedagoglar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari va boshqa toifadagi pedagog xodimlar, shuningdek o‘rindosh hamda soatbay (asosiy bo‘lmagan) xodimlardan kamida besh kishidan iborat bo‘lgan tarkib biriktiriladi.

“Mutaxassislik maxsus fanlar ” kafedrasi o‘qituvchilari haqida ma’lumot(namuna uchun)

2-jadval

№	Familiyasi ismi-sharifi	Tug‘ ilan oyi, kuni va yili	Qaysi oliy ta’ lim muassasasini qachon tamomlagan	Diplom bo‘ yicha ixtisosligi, ilmiy darajasi	Ushbu ta’ lim muassasasiga qachon kelgan	Qaysi fandan dars beradi	Oxirgi marta qachon malaka oshirgan	Qachon malaka toifasi berilgan buyruq №
1	Fazliddinova Saidaxon Baxriddinovna	27.04. 1975y	Far PI	Yengil sanoat maishiy - xizmat, mashina va apparatlari.	1997-yil	1.Bolalar kiyimini tikish texnonlogiyasi; 2.Bolalar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish; 3. Ayollar kiyimini tikish texnologiyasi 4. Ayollar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish 5.Tikuvchilik materialshunosligi; 6.Tikuvchilik texnologiyasi va jihozlari; 7.Maxsus rasm.	2021-yil Sentabr	2024
2	Olimova Gulxumor	25.11 1987- yil	TTESI	Gazlamalar va trikotaj texnologiyasi	2020-yil	1.Materialshunoslik; 2. Tabiiy tolalarga dastlabki ishlov berish; 3. To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi; 4. To‘qimachilik mahsulotlari sifat nazorati;	2022-yil fevral	-
3	Hasanova Yulduzxon	25.03.1978-yil	Far PI	Yengil sanoat maishiy - xizmat, mashina va apparatlari.	1999-yil	1.Dekorativ amaliy tasvirlash ishlari 2. Ishlab chiqarish amaliyoti 3. Diplom oldi amaliyoti	2021-yil mart	-
4	Komilov Lochinbek	25.03 1988- yil	NDTI	Gazlamalar va trikotaj texnologiyasi	2001-yil	1.Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi. 2. Texnikaviy chizmachilik **3.** Tabiiy tolalarga dastlabki ishlov berish 4. To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi	2024-yil may	-

						5.Ishlab chiqarish amaliyoti 6. Diplom oldi amaliyoti		
5	Abdullayeva Nigoraxon	12.12.1988-yil	TTESI	Yengil sanoat maishiy - xizmat, mashina va apparatlari	2018-yil	1.Tasviriy va me'morlik san'ati tarixi 2. Kompozitsiya 3. Mahsulot sifatini standartlashtirish va metrologiya asoslari 4. Chizmageometriya, soyalar va nuqtalar nazariyasi 5. Chizmatasvir	2024-yil fevral	-

2. Kafedraning asosiy maqsadi

Kasbiy ta'lim tashkilotida faoliyat yurituvchi kafedraning asosiy maqsadi Umumiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lim standartlari asosida o'quv, o'quv-uslubiy va o'quv-amaliy ishlarni tashkil etish.

Yosh pedagog kadrlarga o'quv-metodik yordam ko'rsatish, katta tajribaga ega bo'lgan pedagoglarning ish tajribalarini umumlashtirish va ommalashtirish.

Fan yo'nalishi bo'yicha mos bo'lgan oliy ta'lim muassasalari kafedralari va ishlab chiqarish korxonalari bilan sifatli kadrlarni tayyorlash sohasida hamkorlik o'rnatish.

Kafedraga tegishli bo'lgan kabinetlar, laboratoriyalar va ustaxonalardagi zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanishni tashkil etish.

Ta'lim jarayonida o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan o'quv-uslubiy va didaktik materiallarni yaratish va ommalashtirish.

Pedagoglarning pedagogik va kasbiy mahoratlarini takomillashtirishda yordam berish

Fan yo'nalishi bo'yicha mos bo'lgan oliy ta'lim muassasalari kafedralari va ishlab chiqarish korxonalari bilan sifatli kadrlarni tayyorlash sohasida hamkorlik o'rnatish ishlari amalga oshiriladi. Kafedraga tegishli bo'lgan kabinetlar, laboratoriyalar va ustaxonalardagi zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish orqali sifatli ta'lim berishga erishiladi.

Ta'lim jarayonida o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan o'quv-uslubiy va didaktik materiallarni yaratish va ommalashtirish hamda pedagoglarning pedagogik va kasbiy mahoratlarini takomillashtirishda yordam berish ishlari ham kafedraning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Kafedra a'zolari ta'lim muassasasining, kafedraning va o'zining ish rejasi asosida belgilangan vazifalarni amalga oshiradi. Ular pedagogik

tashabbus bilan chiqishi, o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqishi va uni amalga oshirishiga haqlidir.

Kafedra bevosita ta’lim tashkiloti direktori hamda o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosariga bo‘ysunadi. Kafedra mudiri boshchiligida kafedra a’zolari bilan birgalikda kafedra Nizomi ishlab chiqiladi. Kafedra o‘z ish faoliyatini Nizom asosida olib boradi. Ushbu Nizomda kafedra tashkil etilishi va faoliyati, kafedra mudiri va a’zolarining faoliyati batafsil yoritiladi va Nizom bo‘yicha kafedra ishlari amalga oshiriladi. Kafedraning ishi har bir o‘qituvchining rejasidan kelib chiqib tuzilgan umumiy reja asosida olib boriladi.

Kafedra ishi quyidagi yo‘nalishda olib boriladi:

1.Kafedra yig‘ilishini o‘tkazish.

2.Kafedrani tashkiliy-uslubiy ishlarini olib borish.

Kafedraning ish rejasi quyidagi bo‘limlardan tashkil topadi: tashkiliy, uslubiy ishlar, kasbiy va pedagogik mahoratni oshirish, o‘quv jarayonini takomillashtirish va oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilinadigan ishlar.

Kafedra mudiri kafedra a’zolari bilan birgalikda kafedraning bir yillik ish rejasini ishlab chiqadi.

Kafedra ishlarini tashkil etishning namunaviy rejasi

3-jadval

№	Tadbirlar nomi	Mas’ul shaxs	Bajarish muddati	Eslatma
I. Muvofiqlashtiruvchi tashkiliy ishlar				
1.	Kafedraning ish rejasini tuzish, muhokama qilish va tasdiqdash	Kafedra mudiri	25-30-avgust	
2.	O‘qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini ko‘rib chiqish tasdiqlash uchun tavsiya etish	Kafedra mudiri	30-avgustgacha	
3.	Mavzularning taqvim rejasini ko‘rib chiqish, tasdiqlash uchun tavsiya etish	Kafedra mudiri	30-avgustgacha	
4.	Fan to‘garaklari ish rejalarini ko‘rib chiqish	Kafedra mudiri	30-avgustgacha	
5.	Yozma nazorat ishlarini ko‘rib chiqish (test savollar bankini tashkil etish)	Kafedra mudiri	Sentyabr	

6.	Kafedra o‘qituvchilari ro‘yxatini tuzish	Kafedra mudiri	25-avgustgacha	
7.	Kafedraga tegishli fanlar ro‘yxatini tuzish	Kafedra mudiri	Avgust	
8.	DTS, TTSlarni mavjudligini ko‘rib chiqish	Kafedra mudiri	30-avgustgacha	
9.	O‘quv rejalarni mavjudligini ko‘rib chiqish	Kafedra mudiri	30-avgustgacha	
10.	Fan dasturlarini mavjudligini ko‘rib chiqish	Kafedra mudiri	30-avgustgacha	
11.	Tarqatma materiallarni mavjudligini ko‘rib chiqish	Kafedra mudiri	30-avgustgacha	
12.	O‘quv-ko‘rgazma va jihozlarni mavjudligini ko‘rib chiqish	Kafedra mudiri	30-avgustgacha	
13.	Darslik, o‘quv qo‘llanma va ma’ruza matnlar soni, sifatini aniqlash	Kafedra mudiri	30 avgustgacha	
14.	Oraliq va yakuniy nazorat ishlar o‘tkazish jadvalini tuzish	Kafedra mudiri	Sentyabr	
15.	Ochiq va namunaviy darslar o‘tkazish jadvalini tuzish	Kafedra mudiri	Avgust	
16.	To‘garak mashgulotlarining jadvalini tuzish	Kafedra mudiri	Avgust	
17.	Fan o‘qituvchilarining o‘zaro darslarga kirish jadvalini tuzish	Kafedra mudiri	Avgust	
18.	Ijodkor o‘qituvchilarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish jadvalini tuzish	Kafedra mudiri	Sentyabr	
19.	Attestatsiyadan o‘tuvchi o‘qituvchilar ro‘yxatini tuzish	Kafedra mudiri	Sentyabr	
20.	O‘qituvchilarning malaka oshirish jadvalini tuzish	Kafedra mudiri	Sentyabr	
II. O‘quv-tarbiyaviy ishlar				
1.	Guruh jurnallarini to‘g‘ri rasmiylashtirish bo‘yicha tavsiyalar berish	Kafedra mudiri	Sentyabr	
2.	Fan olimpiadalariga o‘quvchilarni tayyorlash	Kafedra mudiri va	Sentyabr, Noyabr	

		a’zolari		
3.	O‘quvchilarning ilmiy-amaliy konferensiyalarini o‘tkazish	Kafedra mudiri va a’zolari	Reja asosida	
4.	Eng iqtidorli o‘quvchi ko‘rik-tanlovini o‘tkazi	Kafedra mudiri va a’zolari	Reja asosida	
5.	Qo‘shimcha dars o‘tuvchi o‘qituvchilar ro‘yhatini tuzish	Kafedra mudiri va a’zolari	Yil davomida	
6.	Qo‘shimcha mashg‘ulotlarga qatnashuvchi o‘quvchilar ro‘yxatini tuzish	Kafedra mudiri va a’zolari	Yil davomida	
III. O‘quv-uslubiy ishlar				
1.	Kafedra o‘qituvchilarining o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yozish jadvalini tuzish	Kafedra mudiri	sentyabr	
2.	Ma’ruza matnlarini mavzular bo‘yicha tayyorlash	Kafedra a’zolari	Yil davomida	
3.	Ko‘rgazmali o‘quv qurollari tayyorlash	Kafedra a’zolari	Yil davomida	
4.	Uslubiy ishlanma va tavsiyalar tayyorlash	Kafedra a’zolari	Yil davomida	
5.	Vaziyatli-muammoli masalalar tuzish	Kafedra a’zolari	Yil davomida	
6.	Test savollari tuzish (test savollar bankini yaratish)	Kafedra a’zolari	Yil davomida	
7.	Imtihon savollari materiallarini tayyorlash	Kafedra a’zolari	Har semestr yakunida	
8.	Nazariy dars va amaliy mashgulot rejalarini tuzish	Kafedra a’zolari	sentyabr	
9.	O‘qituvchilarning ilmiy-amaliy konferensiyasida qatnashish	Kafedra mudiri va a’zolari	Reja asosida	
10.	Tajriba almashish maksadida o‘zaro darslarga katnashish	Kafedra mudiri va a’zolari	Reja asosida	
11.	I bosqich fan olimpiadasi materiallarini tayyorlash	Kafedra mudiri va a’zolari	sentyabr, oktyabr	
12.	Kafedra haftaligi (oyligi)ni	Kafedra	Reja asosida	

	o‘tkazish	mudiri va a’zolari		
IV. Kasbiy va pedagogik mahoratni oshirish				
1.	Pedagogika, psixologiya va metodika bo‘yicha maqolalar, tavsiyalar, materiallar bilan tanishib borish	Kafedra mudiri va a’zolari	Yil davomida	
2.	Eng yaxshi o‘qituvchi ko‘rik-tanlovini o‘tkazish	Kafedra mudiri va a’zolari	Reja asosida	
3.	Eng yaxshi ma’ruza matni va eng yaxshi ko‘rgazmali o‘quv quroli, eng yaxshi referat ko‘rik-tanlovini o‘tkazish	Kafedra mudiri va a’zolari	Reja asosida	
4.	Ochiq namunaviy dars o‘tkazish	Kafedra mudiri va a’zolari	Reja asosida	
5.	Ochiq amaliy mashg‘ulot o‘tkazish	Kafedra mudiri va a’zolari	Reja asosida	
6.	To‘garak ishini tashkil etish	Kafedra mudiri va a’zolari	Reja asosida	
7.	Malaka oshirish kurslarida o‘qish	Kafedra mudiri va a’zolari	Reja asosida	
8.	Malaka toifalari mezoni talablari asosida o‘quv-uslubiy ishlar tayyorlash	Kafedra mudiri va a’zolari	Yil davomida	
9.	Yangi o‘quv adabiyotlari, dasturlar va darsliklar bilan tanishib borish	Kafedra mudiri va a’zolari	Yil davomida	
10.	Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida dars mashg‘ulotlarini o‘tish	Kafedra mudiri va a’zolari	Yil davomida	
11.	Yangi axborot kommunikatsiya	Kafedra mudiri va a’zolari	Yil davomida	
	texnologiyalarini o‘zlashtirish			
V. O‘quv jarayonini takomillashtirish				

1.	O‘quv xonasi va laboratoriyalarni yangi asbob-uskunalar, anjomlar bilan boyitib borish	Kafedra mudiri va a’zolari	Yil davomida	
2.	Amaliy mashg‘ulot xonalarida o‘quvchilarga amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun shart-sharoitlar yaratib berish	Kafedra mudiri va a’zolari	Yil davomida	
3.	Davlat imtihonlarining tahlilini o‘tkazib, o‘quv jarayonini taomillishtirish bo‘yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqish	Kafedra mudiri va a’zolari	Yil davomida	
VI. Oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik ishlari				
1.	Oliy ta’lim muassasalariga aloqador bo‘lgan kafedralar bilan shartnoma tuzish	Kafedra mudiri	sentyabr	
2.	Oliy ta’lim muassasalari kafedralari bilan tuzilgan shartnoma asosida hamkorlik rejalarini tuzish va ularni amalga oshirish	Kafedra mudiri	sentyabr	
3.	Kafedra yig‘ilishlariga oliy ta’lim muassasalari kafedralarining professor-o‘qituvchilarini taklif qilish va ularning fikr-mulohazalarini inobatga olish	Kafedra mudiri va a’zolari	Yil davomida	
4.	Oliy ta’lim muassasalari kafedralarining professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlikda qo‘llanmalar, darsliklar, ma’ruza matnlari va uslubiy tavsiyalar yaratish ishlarini olib borish	Kafedra mudiri va a’zolari	Yil davomida	

Kafedra majlisida ko‘rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.
Majlis bayoni № _____
“____”_____20_____
Kafedra mudiri: _____

Belgilangan ish rejalari va kafedra faoliyatiga tegishli boshqa masalalarning bajarilishi pedagog, muhandis-pedagoglar ishtirokida

kafedra majlisida muhokama etilib, qaror qabul qilinadi.

Kafedra va kafedra mudirining ish rejalari ta'lim muassasa direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Kafedralar ta'lim tashkilotining Pedagogik kengashi qarori va direktor buyrug'i asosida tashkil etiladi yoki tugatiladi.

Kafedra mudirining vazifalariga quyidagilar kiradi:

3. Kafedra mudirining faoliyati

Kafedra ishlarini rejalashtirish va boshqarish.

Kafedra a'zolarini tizimga oid Qonunlar, Prezident Farmoni va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan berilgan buyruq va yo'riqnomalar bilan tanishtirish.

Kafedraning bir yillik va istiqbolli (5 yilga) ish rejasini shakllantirish va uni bajarilishini ta'minlash.

O'quv-uslubiy hujjatlarni tayyorlash sifatini va bajarish muddatlarini nazorat qilish.

Kafedra tomonidan o'qitiladigan fanlar bo'yicha o'qitish materiallari to'plamlari, raqamli ta'lim resurslari va ishchi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash uchun taqdim etish, shuningdek, turdosh fanlardan tayyorlangan ishchi o'quv dasturlariga taqriz va xulosalar tayyorlash.

Pedagoglar tomonidan o'quv dasturlari asosida fanlar bo'yicha taqvim mavzu rejalarini ishlab chiqishni nazorat qilish va belgilangan tartibda tasdiqlash.

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tuzilgan o'quv rejalari asosida darslarni, laboratoriya ishlarini va boshqa turdagi o'quv mashg'ulotlarini yuqori nazariy, ilmiy-uslubiy saviyada o'tkazishni ta'minlash.

Fanlar bo'yicha darslik, elektron darslik, o'quv-uslubiy va ko'rgazmali qo'llanmalar, ma'ruza matnlari yozishga ko'maklashish.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni, ularni fan olimpiadasi va ko'rik-tanlovlarda ishtirokini ta'minlash, o'quvchilarni mustaqil tayyorgarlik ko'rishining shakl va uslublarini belgilash.

Ilmiy-tadqiqot ishlariga moyilligi bo'lgan yosh pedagoglarni oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilariga biriktirish va ularga uslubiy yordam ko'rsatishga ko'maklashish.

Yosh mutaxassislarga tajribali pedagoglarni biriktirish, ular tomonidan o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va o'qitishning zamonaviy texnik vositalaridan foydalangan holda o'tishini ta'minlash.

Kafedra pedagoglarining malakasini belgilangan

muddatlarda oshirishni ta'minlash.

Pedagoglarning mavzu-taqvim rejasini, ish rejasini, kabinet

mudirlari va to‘garak rahbarlarining ish rejasini ko‘rib chiqish.

Fanlar bo‘yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari uchun tuzilgan test savollarini to‘plash, fanlardan test savollari bankini tashkil qilish.

Fanlar bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasiga oid imtihon materiallarini pedagoglar tomonidan tayyorlashni ta’minlash.

Pedagog kadrlar tomonidan iqtidorli hamda fanlarni o‘zlashtirish darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashni tashkil qilish.

Kafedra a’zolarini ilg‘or pedagogik texnologiyalarga oid yangiliklar, axborotlar va ma’lumotlar bilan tanishtirib borish.

Ta’lim jarayoni sifatini oshirish maqsadida kafedra pedagoglarining darslarga o‘zaro qatnashish jadvalini tuzatish va amalda bajarilishini nazorat qilish, hamda pedagoglarning darslarini tahlil qilish.

Pedagoglar, kabinet va laboratoriya mudirlari ish tajribalarini o‘rganish, umumlashtirish va ommalashtirishni tashkil etish.

Pedagoglarga ochiq namunaviy darslar o‘tkazishda amaliy yordam ko‘rsatish va tahliliy muhokamada ishtirok etish.

Kabinet va laboratoriya mudirlariga xonalarni jihozlashda ko‘maklashish.

O‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashni reyting nazoratini tashkil qilish.

Yil davomida kafedrada bajarilgan ishlar yuzasidan ta’lim tashkilotining Pedagogik kengashida hisobot berish.

Belgilangan vazifalarni o‘z muddatida sifatli bajarilishini, ichki mehnat intizomiga rioya qilinishini, pedagoglarni kasbiy malakasini doimiy ravishda takomillashtirib borishni ta’minlash.

Oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari bilan o‘z yo‘nalishi bo‘yicha hamkorlik aloqalarini amalga oshirish.

Kafedra faoliyati uchun kafedra mudiri mas’ul bo‘lib, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari va uslubchi rahbarligida ish olib boradi. Kafedra ishlarini yillik reja asosida kafedra a’zolariga teng taqsimlaydi.

Kafedra mudirining huquqlari - Kafedra mudirining huquqlariga quyidagilar kiradi: Ta’lim muassasasi rahbariyatiga o‘qituvchilar, kabinet mudirlari, to‘garak rahbarlari va laborantlarni tanlash bo‘yicha tavsiyalar kiritish.

Ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida kafedra o‘qituvchilarining darslariga kirish va tahlil qilish.

Oraliq va yakuniy nazoratlarda, yakuniy davlat attestatsiyasida qatnashish.

Ta’lim muassasasi rahbariyatiga kafedra a’zolarini ishga qabul qilish, rag‘batlantirish yoki intizomiy jazo choralarini qo‘llash haqida taklif kiritish.

Kafedra a’zolari orasida yillik yuklama va funksional vazifalarni taqsimlashga doir takliflarni kiritish.

Guruh rahbarlarini tayinlash bo‘yicha taklif kiritish.

Davlat ta'lim standartlari talablariga mos keladigan darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish jarayonida faol ishtirok etish.

Ta'lim jarayonida orttirilgan tajribalar asosida fanlar bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga o'zgartirishlar kiritish takliflarini berish.

Kafedra tasarrufiga kiruvchi fanlar bo'yicha namunaviy dasturlar va boshqa me'yoriy xujjatlar ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish.

Kafedra ishini yuritish uchun kerak bo'ladigan me'yoriy hujjatlar ro'yxati:

- O'quv jarayoniga tegishli bo'lgan uslubiy tavsiyanomalar.
- Kafedraning o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-marifiy ishlarni qamrab olgan yillik hamda istiqbolli ish rejalari.
- Davlat va tarmoq ta'lim standartlari.
- Yo'nalishlar bo'yicha o'quv rejalari.
- Fanlar bo'yicha o'quv dasturlari.
- Fanlar bo'yicha taqvim mavzular rejasi.
- Fanlar bo'yicha reyting ball taqsimot xaritasi.
- Kafedra o'qituvchilarining yillik ish rejalari.
- O'qituvchilarni dars o'tish jadvali.
- Fanlar bo'yicha reyting nazorat ekrani.
- Fanlar bo'yicha o'quv xonalari va to'garaklar ish rejalari.
- Darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar hujjatlari (konferensiya, olimpiada, ko'rik-tanlov va to'garak yig'ilishi)
- O'tkazilgan oraliq va yakuniy nazorat ishlari va tahlili.
- O'qituvchilarning darslarga o'zaro kirishini qayd etish kitobi.
- Kafedra o'qituvchilari tomonidan o'tkazilgan ochiq darslar hujjatlari.
- O'quv-uslubiy qo'llanmalar va ishlanmalarni qayd etish jurnali.
- Fanlar bo'yicha yozma nazorat ishlar variantlari.
- Fanlar bo'yicha test savollari banki.
- O'qituvchilarning shaxsiy ish rejalari.
- O'quv-uslubiy ishlar, fan to'garak ishlari, shaxsiy ish rejalari bo'yicha bajarilgan ishlar hisoboti.
- Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish bo'yicha uslubiy hujjatlar.
- Kafedra mudiri va o'qituvchilarning yillik hisobotlari.
- O'quv-uslubiy adabiyotlar ro'yxati :va fan va texnika sohasida yangiliklar devoriy ko'rgazmasi(stend), matbuot xabarlari, ma'ruza matnlari.
- Iqtidorli o'quvchilar ro'yhati va ular bilan ishlash rejalari.
- O'quvchilarda Vatanparvarlik, milliy an'analar, xalq merosi va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantiruvchi tadbirlar rejasi.
- Kafedra yig'ilishlarini bayonnomalaridan iborat vazifalarni bajaradi

Quyida kasbiy ta'lim tashkilotlarinining kafedra mudiri tomonidan bajariladigan ishlarning namunaviy jadvallari keltirilgan

"Maxsus fanlar" kafedrasi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash rejasi

4-jadval

№	Tadbirlar	Mas'ul	Muddati
1	Boshlang'ich nazorat natijalari asosida o'quvchilarni tanlab olish	Kafedra a'zolari	Oktyabr
2	Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash	Kafedra mudiri	Oktyabr
3	Komissiya ish rejasini o'rganish va tasdiqlash	Kafedra mudiri	Oktyabr
4	Iqtidorli o'quvchilarni fan to'garaklariga jalb qilish	Fan o'qituvchilari	Oktyabr
5	To'garaklar ish faoliyatini nazorat qilib borish	Kafedra mudiri	Yil davomida
6	Iqtidorli o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash, tuman, shahar bosqichidagi ishtirokini ta'minlash	Kafedra a'zolari	Oktyabr dekabr
7	Iqtidorli o'quvchilarni mustaqil ishlarini nazorat qilib borish	Kafedra a'zolari	Yil davomida
8	Iqtidorli o'quvchilarni elektron darsliklar o'quv adabiyotlar,elektron multimedia qo'llanmalari , Internet tarmog'ida maqsadli foydalanishga o'rgatib borish	Kafedra a'zolari	Yil davomida
9	Iqtidorli o'quvchilarni intellektual salohiyatini muntazam ravishda aniqlab borish	Kafedra a'zolari	Yil davomida
10	Iqtidorli o'quvchilar o'rtasida kafedra tasarrufidagi fanlar bo'yicha "Quvnoqlar va zukkolar"," Zakovat", "Yosh kompyuterchi "tadbirlarini o'tkazish	Kafedra a'zolari	Yil davomida
11	Iqtidorli o'quvchilarni fan arboblari,oily o'quv yurtlari professor o'qituvchilari bilan uchrashuvlarni tashkil etish	Kafedra mudiri	Yil davomida

Kafedra majlisida ko‘rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.
Majlis bayoni № _____
“____”_____20_____
Kafedra mudiri: _____

Yosh mutaxassis o‘qituvchilarga tajribali pedagoglarni biriktirib qo‘yadi. Ular tomonidan o‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va o‘qitishning zamonaviy texnik vositalaridan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini olib borishini ta’minlaydi.

“Maxsus fanlar” kafedrasining yosh o‘qituvchi va pedagog-muxandislari bilan ishlash yillik ish rejasi.

5-jadval

№	Ish mavzulari	Vaqti
